



## PSYCHOLOGY OF COLOR SELECTION IN NATIONAL DRESSES AND FUNDAMENTALS of DESIGN

Rakhimova Kamola Gayratovna

Choriyeva Sabina Anvarovna

Normamatova Sevinch Yuldosh kizi

[raximovakamola96@gmail.com](mailto:raximovakamola96@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17394445>

### ARTICLE INFO

Received: 14<sup>th</sup> October 2025

Accepted: 19<sup>th</sup> October 2025

Online: 20<sup>th</sup> October 2025

### KEYWORDS

Color psychology, national dress, design, culture, aesthetic expression, psychological impact, color types, national identity.

### ABSTRACT

*This article explores the aesthetic, psychological, and cultural significance of colors in national clothing. It analyzes the psychological effects of colors on human emotions and mood. The article emphasizes the importance of cultural symbols, design theories, and ecological factors in the process of color selection. It also provides examples of how color is used in fields such as marketing, medicine, psychology, and design. The study demonstrates that color psychology in traditional dress helps express not only beauty but also spiritual meaning and national identity.*

## ПСИХОЛОГИЯ ВЫБОРА ЦВЕТА В НАЦИОНАЛЬНЫХ ПЛАТЬЯХ И ОСНОВЫ ДИЗАЙНА

Рахимова Камола Гайратовна

Чориева Сабина Анваровна

Нормамадова Севинч Юлдош кызы

[raximovakamola96@gmail.com](mailto:raximovakamola96@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17394445>

### ARTICLE INFO

Received: 14<sup>th</sup> October 2025

Accepted: 19<sup>th</sup> October 2025

Online: 20<sup>th</sup> October 2025

### KEYWORDS

Психология цвета, национальная одежда, дизайн, культура, эстетическое выражение, психологическое воздействие, цветовая палитра, национальная идентичность.

### ABSTRACT

*В данной статье рассматривается эстетическое, психологическое и культурное значение цветов в национальной одежде. Анализируется влияние цвета на человеческую психику, эмоции и настроение. Отмечается роль культурных символов, дизайнерских теорий и экологических факторов при выборе цветовой палитры. Также представлены примеры использования цвета в маркетинге, медицине, психологии и дизайне. Показано, что с помощью цветовой психологии можно выразить не только красоту, но и духовные ценности и национальную идентичность через национальную одежду.*



**MILLIY LIBOSLARDA RANG TANLASH PSIXOLOGIYASI VA DIZAYN ASOSLARI**

**Raximova Kamola G'ayratovna**

**Choriyeva Sabina Anvarovna**

**Normamatova Sevinch Yo'ldosh qizi**

[raximovakamola96@gmail.com](mailto:raximovakamola96@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17394445>

**ARTICLE INFO**

Received: 14<sup>th</sup> October 2025

Accepted: 19<sup>th</sup> October 2025

Online: 20<sup>th</sup> October 2025

**KEYWORDS**

*Rang psixologiyasi, milliy libos, dizayn, madaniyat, estetik ifoda, psixologik ta'sir, rang turlari, milliy identiklik.*

**ABSTRACT**

*Ushbu maqolada milliy liboslarda ranglarning estetik, psixologik va madaniy ahamiyati yoritilgan. Ranglarning inson psixologiyasiga ta'siri, ularning hissiyot va kayfiyatga ta'sir etuvchi xususiyatlari tahlil qilinadi. Rang tanlashda madaniy ramzlar, dizayn nazariyalari va ekologik omillar muhim rol o'ynashi ta'kidlanadi. Shuningdek, ranglarning marketing, tibbiyot, psixologiya va dizayndagi qo'llanilishi misollar bilan yoritilgan. Rang psixologiyasi orqali milliy liboslarda nafaqat go'zallik, balki ma'naviy ifoda va milliy o'zlikni namoyish qilish imkoni borligi ko'rsatib o'tilgan.*


**Kirish.** Milliy liboslar - xalq madaniyatining, tarixiy merosning va estetik qadriyatlarining muhim ifodasidir. Ranglar esa milliy liboslarda nafaqat estetik qismni tashkil etadi, balki psixologik ta'sir va madaniy ramzlarni ifodalaydi. Rang tanlash jarayoni inson psixologiyasi, madaniyat va dizayn nazariyalarining o'zaro uyg'unligidir.

Ranglarning inson psixologiyasiga ta'siri mavjud bo'lib, ranglar inson hissiyotlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, qizil rang energiya, ehtiros va quvvatni bildirsa, ko'k rang tinchlik va ishonchni ifodalaydi [2]. Milliy liboslardagi ranglar shaxs va jamiyatning his-tuyg'ularini aks ettiradi.

Har bir millatning ranglarga o'ziga xos ma'nosi bor. O'zbek madaniyatida qizil rang baxt va himoyani, oq rang poklikni, yashil rang esa tabiat va yangilanishni anglatadi [1]. Bu ramzlar liboslar dizaynida mustahkam asos sifatida xizmat qiladi.

Ranglar kombinatsiyasi va uyg'unligi muhim ro'l o'ynaydi, aynan milliy liboslardagi rang kombinatsiyalari madaniy an'analar va estetik qoidalar asosida shakllanadi. Ranglarning uyg'unligi va kontrasti estetik qoniqishni ta'minlaydi va kiyimning funkcionalligini oshiradi. Zamonaviy dizaynerlar an'anaviy rang palitrasini saqlagan holda, yangi materiallarda innovatsion yechimlar yaratmoqda, shu bilan bir qatorda rang tanlashda ekologik omillar ham e'tiborga olinadi.

Ranglarning sirli olami, ularning ortida yashiringan ma'nolar hamda inson psixologiyasi bilan bog'liqligi uzoq yillardan beri olimlar va san'atkorlar e'tiborini tortib kelmoqda. Ranglar ustida tadqiqot olib borayotgan mutaxassislar bu boradagi bilimlari orqali ko'plab kishilarning qiziqishini uyg'otmoqda.



**1-rasm. Ranglar palitsasi**

Inson tabiatan san'atkor – u atrofini doimo go'zallashtirishga intiladi. Rang esa tasviriy san'atning asosiy ifoda vositasi hisoblanadi. Asarlarning hissiy va ruhiy ta'sirini kuchaytirishda ranglar muhim rol o'ynaydi. Ranglar haqida fikr yuritishdan avval yorug'lik tabiati, fotonlar, ko'z tuzilishi, rangli ko'rish jarayoni kabi ilmiy asoslar bilan tanish bo'lish zarur.

Men ranglar bilan ishlaydigan kasblar – rassomlar, dizaynerlar, me'morlar, stilistlar faoliyatini o'rganar ekanman, ular qanday ma'no berayotganini tushunishga harakat qilaman. Ranglar hayot sifatini yaxshilashda, shaxsiy ishonchni oshirishda, o'zini ifoda etishda kuchli vosita hisoblanadi. Ranglar nafaqat yotoqxonada dizaynidan tortib, balki ishbilarmonlik muhitigacha samarali qo'llaniladi.

**Ranglarning inson ruhiga ta'siri.** Ranglar psixologik jihatdan insonga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ular ijobiy yoki salbiy hissiyotlarni uyg'otishi mumkin. Olimlar aniqlashicha, inson ko'zi bir milliondan ortiq rang farqlarini ajrata oladi. Har bir inson ranglarni o'ziga xos tarzda qabul qiladi.

**Ranglar va ularning psixologik ta'siri:**

**1-jadval**

N <sub>o</sub>	Rang	Ijobiy Ta'sirlar	Salbiy Ta'sirlar	Qo'llanilishi tavsiya etiladigan joylar
1	<b>Qizil</b>	Energiya, jasorat, diqqatni tortuvchi	Tajovuzkorlik, stress, qon bosimini oshiradi	Ogohlantiruvchi belgilar
2	<b>Ko'k</b>	Xotirjamlik, ishonch, tafakkur	Sovuqlik, befarqlik, hissiy uzoqlikni ifoda etadi	Ofislar, banklar, texnologik kompaniyalar
3	<b>Sariq</b>	Optimizm, ijodkorlik, ichki kuch	Xavotir, zo'riqish va asabiylikni kuchaytiradi	Sport zallari, bolalar xonalari



4	<b>Yashil</b>	Tinchlik, muvozanat, tabiat bilan bog'liqlik	Zerikarli, motivatsiyani pasaytirishi mumkin	Klinikalar, oziq-ovqat do'konlari, ofislar
5	<b>Binafsha</b>	Hashamat, nostalgiya, ruhiy chuqurlik	Haddan tashqari ishlatilsa, "soxta hashamat" taassurotini berishi mumkin	Zargarlik do'konlari, premium brendlar
6	<b>Pushti</b>	Romantika, nafislik, ayollik ramzi	Noziklik yoki bolalarcha yondashuvni bildiradi, jiddiylilik yetishmasligi	Kosmetika, moda, bolalar mahsulotlari
7	<b>Apelsin</b>	Quvnoqlik, ijobiy kayfiyat	Kuchli energiya berishi mumkin, lekin uzoq vaqt davomida charchatadi	Yoshlar brendlari, fast food reklamalar
8	<b>Qora</b>	Jiddiylilik, kuch, klassika	Noqulaylik, tushkunlik, izolyatsiya hissi uyg'otishi mumkin	Formal kiyimlar, qimmat mahsulotlar
9	<b>Kulrang</b>	Neytrallik, professional ko'rinish	Hissiy jihatdan "sovuq", ruhiy holatni sustlashtiradi	Fond sifatida, muvozanatni saqlash uchun

Misollar va ilmiy asoslarga tayanib ranglarning psixologik ta'siri va ularning inson hayotiga ahamiyatga ega. Qizil - yurak urishini tezlashtiradi, raqobat muhitida ishonch uyg'otadi. AQShda qizil forma kiygan futbolchilar g'alabaga yaqinroq bo'lishgani aniqlangan. Ko'k - ishonch va barqarorlik ramzi. Ko'p kompaniyalar logotiplarida ko'k rangdan foydalanadi. Sariq - ijodiylikni kuchaytiradi, lekin noto'g'ri ohangda xavotir uyg'otadi. Yashil - dam olish va barqarorlikni bildiradi, tabiat bilan bog'liqligi tufayli gipermarket logotiplariga muvaffaqiyatli qo'llaniladi. Qora - hashamat va kuch ramzi, lekin salbiy tushunchalar bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. McDonald's, Burger King kabi fast food brendlarining logotiplari aynan qizil + sariq kombinatsiyasiga asoslangan bo'lib, bu "ketchup va xantal nazariyasi" deb ataladi - ochlik hissini kuchaytiradi.

Ranglarni boshqa sohalardagi o'rni

- marketing - mahsulotlar rang orqali xaridor e'tiborini tortadi.
- tibbiyot - ranglar yordamida muolaja qilinadi, ranglar kayfiyat va salomatlikka bevosita ta'sir qiladi.
- arxitektura va dizayn - noto'g'ri tanlangan ranglar holsizlik, charchoq va ruhiy tushkunlikka sabab bo'ladi.
- psixologiya - ranglar inson hissiyotlariga chuqur ta'sir qiladi, ruhiy muvozanatga hissa qo'shadi.

Ranglar hayotimizning ajralmas qismidir, ularni ongli ravishda tanlash, ruhiyatimizga va jamiyat bilan bo'lgan aloqalarimizga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Kundalik turmush tarzida ranglarning maqsadli qo'llanilishi orqali hayot sifatini yaxshilashimiz, kayfiyatimizni boshqarishimiz va atrofdagilarga kuchli ta'sir o'tkazishimiz mumkin.



**Xulosa:** Milliy liboslardagi rang tanlash psixologiyasi va dizayn asoslari milliy madaniyat va inson psixologiyasining uyg'unligini namoyish etadi. Ranglar milliy identiklikni shakllantirish va zamonaviy moda tendensiyalariga moslashishda muhim ahamiyatga ega. Kelajakda rang psixologiyasi sohasidagi tadqiqotlar milliy dizaynni yanada boyitishga xizmat qiladi.

## References:

1. Asqarov, M. (2018). Milliy liboslar tarixi va madaniyati. Toshkent: O'zbek tili va adabiyoti nashriyoti.
2. Eysenck, M. (2012). Color Psychology and Its Application. New York: Psychology Press.
3. Karimova, L. (2020). Ranglar psixologiyasi va madaniyat. Toshkent: Fan va texnologiya.
4. Zhou, H., & Li, Y. (2019). The influence of color in ethnic costumes on psychological perception. *Journal of Cultural Studies*, 12(3), 45-59.
5. S.A. Rakhimov. *Ranglar psixologiyasi*. Toshkent: O'qituvchi, 2019.
6. Islomova, D. T. *Psixologiya asoslari*. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
7. Omonova, M. M. *Psixologiyada ranglar vositasida ta'sir ko'rsatish yo'llari*. – "O'zbekiston fanlari akademiyasi axborotnomasi", 2021-yil, №2.
8. Karimova, N. N. *Dizayn nazariyasi va amaliyoti*. Toshkent: Kamalak NPB, 2018.
9. Raximova K., Boltayeva I. MODANING YOSHLAR DUNYOQARASHI VA IJTIMOY HAYOTIDAGI O'RN. Yevrosiyo Ilmiy Tadqiqotlar Jurnal, 5(9), 81–85. Retrieved from <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/59945>. DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17152052>
10. Raximova K., Boltayeva I. DIZAYNNING DUNYO USLUBLARIDAGI O'RN. Yevrosiyo Ilmiy Tadqiqotlar Jurnal, 5(9), 86–90. Retrieved from <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/59946>
11. Sultanova F. Toshbekov O. Bo'lajak muhandislarga raqamli texnologiyalar asnosida o'qitish tizimlari. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 2024. 4(5), 16–21.
12. Тошбеков О., Мустановва З. Анализ основных физико-механических характеристик шерсти в нашей республике. *Евразийский журнал академических исследований*, 2024. 4(4), 152–158.
13. Урозов, М. К., Тошбеков, О. А., Рахимова, К., & Бобомуродов, Э. (2022). Жун толаси диаметри ва нотекислиги аниқлаш. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(13), 789-791.
14. Урозов М.К., Тошбеков О.А., Рахимова К. Жунни қалинлигини синовдан ўтказиш усуллари. *Eurasian Journal Of Academic Research*. 2022. Vol 2, № 13. P. 784–788; [01.00.00, №5<sup>1</sup>].
15. Тошбеков О., & Мустановва З. Олинган нотўқима матонинг ишқаланишга чидамлилигини ва шовқинни ютишга юқори мослашувчанлик хоссаларини аниқлаш. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(12 Part 2), 2023.217–221.



16. Тошбеков О., Рахимкулова С. Дағал жун толалари асосида олинган (автомобил, авиятсия, кемасозлик) саноати учун қўлланилган нотўқима мато тайёрлаш. Евразийский журнал академических исследований, (2023). 3(12 Part 2), 211-216.
17. Toshbekov, O., Urazov, M., Ermatov, S., & Khamraeva, M. 2023). Efficient and economical energy use technology in the processing of domestic coarse wool fiber. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 461, p. 01068). EDP Sciences.